



O`TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI“ ROMANIDAGI O`ZBEK XALQI QADRIYATLARI

Choriyev Nurbek Jumanazar o`g`li

Termiz davlat universiteti o`zbek

filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada O`tkir Hoshimovning “ Ikki eshik orasi “ romanidagi xalqimiz urf-odat hamda an`analari ochib berilgan . Shuningdek , ushbu qadriyatlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan .

**Kalit so`zlar:** Epik tur , roman , qadriyat , an`ana , folklor , oilaviy marosim.

Nafaqat o`zbek xalqining , balki butun turkiy xalqlarning faxr-u iftixor ko`zgusi bo`lgan ulug` yozuvchi O`tkir Hoshimov o`zidan kitobxonlar ko`nglini bir o`qishdayoq zabt etadigan boqiy va durdona asarlar qoldirgan . Uning asarlari , aniqroq aytganda , xalqning turmush tarzini , mentalitetini , ichki dunyosini chuqur tasvirlashdagi mahorati bilan ajralib turadi . Undan qolgan yodgorliklar faqat adabiyotda emas , balki kino , dramaturgiya va umuman san`at sohalarida ham ahamiyat kasb etgan . O`tkir Hoshimov ijodidagi personajlar – hayotiy , haqiqiy va o`ziga xos , ularni o`qish insonning o`zini izlashga , anglashga yordam beradi , undagi uslub oddiy , tushunarli , ammo har bir so`z va ibora ma`no bilan to`la . Uning “ Ikki eshik orasi “ asari epik turdagi romanlar “ qaymog” idir . Epik tur – voqealarni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asar guruhiga aytiladi va epos (yunoncha epos – rivoya , hikoya , so`z , nutq) deb ataladi . ⁱ “ Ikki eshik orasi “ haqiqiy



o'zbekona ruhda yozilgan , voqealar rivoji hayot mantig'iga mos tushadigan , obrazlar reallikka asoslangan , milliylik saqlangan ,undagi urf-odatlar, an'analar o'zbek xalqining hayotini ko'rsatib bera olgan roman sanaladi . Roman (fransuzcha roman – dastlab roman tillarida yaratilgan asar) – inson xususiy hayotini jamiyat bilan bog'lab , keng tasvirlovchi yirik epik janr .ⁱⁱ

Avvalambor , asar boshida Muzaffarga onasining o'limi to'g'risida telegramma keladi , shu payt Robiya bo'lgan voqeani aytolmaydi va turmush o'rtog'i Shomurodga qarab , “ siz gapiring “ degandek imo-ishora qildi , demak , bundan ko'rishimiz mumkinki , o'zbek millatida fojeali holatlarni , ayniqsa , o'g'il farzandga aytish ota zimmasiga tushadi , shuningdek , bu holatda Robiyaning ayollarga xos bo'lgan iffatini ko'rishimiz mumkin bo'ladi . Shundan so'ng , asardagi syujet ortga, ya'ni Muzaffarning yoshligiga qaytadi . Muzaffar dadasi bilan “ Qora amma “sinikiga borar ekan , yo'lda choyxonaga to'xtab o'tish hodisasining keltirilganligini fahmlaymiz , o'zbek xalqidagidek boshqa xalqlarda “choyxona“ tushunchasi katta vazifa bajarmaydi , shu bilan bir qatorda , O'tkir Hoshimov o'zining “ Dunyoning ishlari “ qissasidagi “ to'rtta o'zbek yig'lsa , oshga urinadi “ voqeasi aynan choyxonada o'zbek milliy taomi bo'lgan oshning pishirilishini ko'rib o'tamiz . Shundan so'ng , “ Qora amma “ uyida non yopadi hamda Muzaffarga atab kulcha ham pishiradi va uni bol kayga yediradi , bu esa xalqimizda “doim issiq non pishirilganidan so'ng boshqalarga ham ulashish “ an'anasini anglatadi . An'ana – o'tmishdan kelajakka meros qoladigan , avloddan ajdodga o'tadigan , jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. Robiya otasi bilan Toshkentga kelganida , Husan dumaning o'z uyidan joy berishi haqiqiy o'zbekchilik sanaladi , albatta . Xo'jalikka yangi rais saylangan paytda Orif oqsoqol : “ Belimda belbog'im bor deganing ertalab hasharga kelaver ! “ , - deb aytgan gaplari odamlarimizning bir-biriga qanchalik yordam berib, raisning uyini hashar orqali qurib berishini ko'rishimiz mumkin , bu esa xalqimizning qanchalik mehmondo'st , bag'rikeng , yordam qo'lini cho'zadigan odamlar ekanligini



bildiradi . “Toshkentdagi tomosha“ bobida Kimsan bilan Robiyaning kinoga borayotganida yonma-yon emas , balki oldinma-ketin yurib borishida aka bilan singil o`rtasida farq bo`lishi , erkak kishi oldinda yurishi kerakligi ochib berilgan . Asarda “Urush boshlanibdi“ xabari tarqalgan zahoti Kimsanni hali urushga chaqirishmasa ham , o`zi borib uni frontga jo`natishlarini so`rashi o`zbek yigitlarining qanchalik botirligi, Vatanga bo`lgan mehr-muhabbatini, sadoqatini bildiradi . So`ng Kimsanni jo`natish paytida unga “patir tishlatish“ marosimi bo`lib o`tadi , bunda rizqi butun bo`lsin va urushdan omon qaytib , o`zi tishlagan patirni o`zi yesin , ya`ni sog`-salomat qaytsin degan ramziy ma`no mavjud . “Qora amma “ qizi Robiyaning to`yidan oldin ukasi Shomurodning uyiga paxta olib boradi , bu holat to`ydan oldin kuyov tomon ko`rpachalar tikish qadriyatini anglatadi . Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy- axloqiy , madaniy-ma`naviy ahamiyatini ko`rsatish uchun qo`llanadigan tushuncha . To`yda esa bo`za ichishlar , xalqqa osh berish hodisalari ham folklor urf-odatlarining namunasidir. Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo`lib , “xalq donoligi“ degan tushunchani ifodalaydi . Aslini olganda , folklor xalq milliyligini o`rganuvchi soha hisoblanadi . To`yda kelin kelganda “sochqi sochish“ marosimi ham bo`lib o`tib , u kelinning mana shu shirinliklar kabi baxtli bo`lib yurish ramzini tashiydi . Kelin va kuyov tomon ayollari o`rtasida tortishmachoq marosimi ham bo`lib o`tadi , unda ayollar o`zaro qiyiqcha tortishadi, agar kelin tomondagi xotinlar yutayotgan bo`lsa ham , erkak kishi tarafida bo`lgan ayollarga yutqazishi kerak bo`ladi, negaki bunda erkak kishi ori, g`ururi ham yotadi . Robiyani kelinlik uyiga olib kelish paytida ayollar tomonidan ot-aravada baralla ovozda yor-yor aytib kelish holati ham uchraydi : Uyda kelin yig`laydi, yot bo`ldim deb, yor-yor, bu kabi qo`shiqlar oilaviy marosimlarning “javohir”laridandir. Oilaviy marosim – o`zbek xalqi o`rtasida to`y hamda motamlardan tashkil topgan folklor namunalari. <sup>iii</sup> Ochilboy Robiyaning oldiga kelib sevishini aytadi hamda urushga ketishdan oldin undan rozi-rizolik so`raydi, xalqimizda rozilik so`rash - ham diniy , ham milliy urf-odat . Robiya va



Kimsanning o'rtasidagi munosabat sovchilik orqali bildirilib , xalqqa “ma'lum oshi” berildi , bu ikki yoshning unashtirilganligini anglatardi. Muzaffar ukali bo'lganidan so'ng “Qora amma” maslahati bilan suyunchi so'rab , qo'shnilaridan turli xil narsalar olinishi yaxshi yangilik aytib kelganlarga narsalar ulashilishi bilan o'lchanar edi . Shundan keyin chaqaloqning beshikka solinishi ham alohida marosim sifatida o'tkaziladi . Urushda qahramonlik ko'rsatgani uchun Komil tabib va uning oila a'zolari taqdirlanadi , tabibga to'n, ya'ni “ chopon kiydirish “ qadriyati amalga oshiriladi . Ra'noning onasi o'limidan oldin vasiyat qilib , taomil bo'yicha qaynani kuyov yerga qo'yishi kerakligini, ammo kuyovi Shomurod urushda , shuning uchun kafaniga Umar zakunchi kabi nomahram erkaklarning qo'li tegmasligini aytib o'tishi ham o'zligimizni unutmasligiz kerakligini uqtiradi . Asardagi Bashor opa obrazi turmush o'rtog'ining vafotiga qadar unga sadoqat saqlab , yonidan jilmay tun-u kun unga dalda berdi, bu haqiqiy qahramonlik edi, aslida, shuningdek, o'zining qizi bilan birgalikda boshqa insonning farzandini ham emizib , katta qilishi , unga mehribonlik qilishi tahsinga sazovor, albatta. Oysara va uning farzandlari esa o'zlariga g'irt begona bo'lgan Muzaffarga qilgan mehmondo'stligi , Oysara uni bolam deb , Yo'ldoshxon ukam deb , Muhabbat akam deb , uning hurmatini joyiga qo'yib, o'gayligini bildirmaslikka harakat qilib, mehribonlik qilishi hech qaysi millatda kuzatilmasligi muqarrardir. Qora amma” o'g'li Kimsanni umrining oxirigacha kutishi, to'y qilish umidini uzmasligi, uning o'lganiga hech ham ishonmasligi onaning farzandga bo'lgan vafosini anglatar edi . Bu dunyoda yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarish hammaning ham qo'lida kelmaydi, ammo milliy qadriyatlar , sharqona tarbiya bilan katta bo'lgan Olimjon Komilovich o'zini o'ldirib qo'yay degan odamga yaxshilik qilishi kamdan kam kuzatiladigan holdir. O'zbekchiligimizda erkaklardan oldin ayollarning sovchilikka borish holatini Robiya orqali kuzatishimiz mumkin .

Xulosa qilib aytganda , “Ikki eshik orasi“ romani milliy qadriyatlar asosida yozilgan , bugungi kunda ham yetishmayotgan urf-odat , an'analarimizni ko'rsatib bera olgan, vafo,



sadoqat, qo`shnichilik, mahalla-ko`y, alqissa, o`zbekning o`zligini ko`rsata olgan asardir . O`tkir Hoshimov asarlari o`zining boy mazmuni, sodda tushunilishi, betakror nasrining milliyligi bilan qadrlanadigan va yuksak baholangan, boqiy yashaydigan, biz ham o`qib, ham uqib olishimiz darkor bo`lgan merosdir. Zero, ulug` adibning qalamidan to`kilgan ushbu asar adabiyot xazinasining go`zal la`l-u javohiridir !

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. To`xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O`zbekiston nashriyoti.Toshkent-2002.
- 2.Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti . Toshkent – 2004 .
- 3.To`ra Mirzayev , Mamatqul Jo`rayev . O`zbek folkori . Malik print co nashriyoti . Toshkent – 2021.
4. O`tkir Hoshimov . Ikki eshik orasi . “O`qituvchi” – matbaa ijodoiy uyi nashriyoti . Toshkent – 2018 .